



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI




2018 yilning avgust oyi uchun O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2018 yilning avgust oyida tovar va xizmatlar narxlari darajasi o`rtacha 0,3 %ga oshdi (yanvar oyida inflyatsiya 2,7 %, fevralda 1,1 %, mart oyida 1,1 %, aprelda 0,9 %, may oyida 0,8 %, iyun va iyul oylarida deflyatsiya 0,4 % va 0,3 %). Joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida inflyatsiya darajasi 6,2 %ni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste`mol narxlari indeksi (INI) dinamikasi

(o`tgan oyga nisbatan, %)




Iste`mol bozorida narxlar yanvar oyida sezilarli darajada qimmatlashdi (2,7 %). Iyun va iyul oylari davomida ichki iste`mol bozorlarining qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan to`yinishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari darajasi hamda umumiy inflyatsiya darajasining pasayishiga o`z ta`sirini o`tkazdi.

Kuzatuv natijalariga ko`ra oy davomida tovarlar narxi o`rtacha 0,3 % va xizmatlar 0,4 % qimmatlashganligini joriy yilning avgust oyidagi narxlar tendentsiyasini “tovar va xizmatlar narxlarining bir maromda o`shishi” deya tavsiflashimiz mumkin.

Yillik inflyatsiya taxlil natijalari shuni ko`rsatmoqdaki (o`tgan yilning mos oyiga nisbatan), mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan inflyatsiya bosimining eng yuqori darajasi joriy yilning yanvar oyi (20,1 %) xissasiga to`g`ri keladi va keyingi oylardan boshlab ushbu tendentsiya aksincha, ya`ni, pasayish tomon xarakatlanganligini ko`rishimiz mumkin.

Inflyatsiya darajasi dinamikasi (INI bo`yicha)

(o`tgan yilning mos oyiga nisbatan, o`shish %)



*) o`zgarma salmoq vaznlaridan foydalanilgan

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida inflyatsion trendlarga ta`sir ko`rsatgan asosiy omillar orasida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

✓ mavsumiylik hamda iqlim sharoitlari ta`sirida meva va sabzavot guruhi mahsulotlari, shuningdek, sutli mahsulotlar, tuxum hamda parranda go`shti narxlarining o`zgarishi;

✓ import mahsulotlari bilan ichki bozorlarning to`yinganligi (masalan, shakar va o`simlik moyi);

✓ yem-xashak (chorva oзуqalari) narxlarining ko`tarilishi natijasida chorva mollarining qimmatlashishi, shuningdek aholi tomonidan mol go`shti mahsulotlariga bo`lgan talabning ortishi;

✓ guruch narxlarining qimmatlashishi iste`mol bozorida ushbu mahsulot xajmining kamayishi hamda ishlab chiqaruvchilar va sotuvchi-tadbirkorlar tomonidan mavsumiy qurg`oqchilik, shuningdek, sholi ekin maydonlarining qisqartirilishi oqibatida kutilayotgan taxminlar;

✓ milliy valyuta qiymatining mustahkamlanishi hamda bir qancha tashqi savdo omillari natijasida import qilinuvchi mahsulotlar va ayrim turdagi xizmatlar narxлари, shuningdek, inflyatsiya darajasining oshib ketmasligiga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatganligi (xavo transporti xizmatlari shular jumlasidandir);

✓ qurilish materiallari narxlarining qimmatlashishi ishlab chiqaruvchi mahalliy tadbirkorlar o`z mahsulotlari narxlarini oshirishlari natijasida vujudga keldi va bu o`z navbatida iqtisodiyotga nisbatan inflyatsiya bosimining ortishi bilan bir qatorda uning o`shishiga 0,8 % (yoki, o`tgan 8 oy davomida inflyatsiyadagi umumiy ulushi miqdori 12,9 %) darajada ta`siri;

✓ ishlab chiqaruvchilar xarajatlarining oshishi natijasida ma`muriy jihatdan tartibga solinuvchi kommunal sohasidagi xizmatlar narxлари qimmatlashdi. Bu o`z navbatida mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga bevosita va bilvosita ta`sir etdi (umumiy inflyatsiya darajasidagi ta`sir ulushi 0,8 %);


✓ yoqilg`i-moylash mahsulotlari bozorida shakllanayotgan holatlar natijasida aholiga avtomobillarga gaz to`ldirish shahobchalari (AGTK) orqali sotiluvchi metan va propan narxining sezilarli darajada qimmatlashishi umumiy inflyatsiya darajasining 0,4 % ko`tarilishiga sabab bo`ldi;

✓ eng kam oylik ish xaqi (eKOIH) miqdorining oshirilishi ham umumiy inflyatsiya darajasiga o`z xissasini qo`shishi bilan bir qatorda, uning inflyatsiyaga bevosita (eKOIX miqdoriga bog`liq bo`lgan xizmatlar: huquqiy tUSDagi, alohida turdagi bank xizmatlari, veterinariya xizmatlari va x.k.) hamda bilvosita (iste`mol talablarini rag`batlantirish va iqtisodiyotga qo`shimcha pul mablag`larini jalb qilish) yo`llari orqali ta`sir etishi;

✓ “GM Uzbekistan” AJ korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarning chakana sotish narxlarini o`rtacha 7,7 %ga oshirilishi respublikaning umumiy inflyatsiya darajasiga 0,05 % miqdoridagi ta`siri;


✓ spirtli ichimliklar hamda tamaki mahsulotlari aktsiz soliqlarining 2018 yilning 1 yanvaridan oshirilishi va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 mart kunidagi “O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to`g`risida”gi PQ-3583-son Qaroriga asosan 2018 yilning 1 iyunidan boshlab pivo va aroq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadlariga yo`naltirilgan qo`shimcha to`lovlarning joriy qilinishi natijasida spirtli ichimliklar 12,5 %ga va tamaki mahsulotlari narxi o`rtacha 15,2 %ga qimmatlashdi (inflyatsiyaga ta`siri 0,2 f.d.).

**2018 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy turdagi tovarlar guruhining
narxlari o`zgarishi dinamikasi va ularning
umumiy INI o`shidagi ta`siri**
(2017 yilning dekabr oyiga nisbatan, %)



Har bir guruh bo`yicha oylik o`zgarishlar va ularning inflyatsiya o`shishiga qo`shgan xissalari quyidagi diagramma ko`rinishida yaqqol aks etgan:

**2018 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy turdagi tovarlar guruhi
narxlari o`zgarishi dinamikasi va ularning
umumiy INI o`shidagi ta`siri
(o`tgan oyiga nisbatan, %)**



Quyidagi jadvalda yirik guruhlar bo'yicha iste'mol narxlari indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan:

Iste`mol narxlari indeksi , %

	2018 yil avgust				Ma`lumot uchun:			
				2018y yanvar- avgust 2017y yanvar- avgustga	2017 yil avgust			2017y yanvar- avgust 2016y yanvar- avgustga
	2018yi yulga	2017y dekabrga	2017y avgustga		2017yi yulga	2016y dekabrga	2016y avgustga	
Iste`mol narxlari indeksi	100,3	106,2	115,7	118,5	100,6	106,4	111,2	107,9
jumladan:								
Tovarlari	100,3	105,4	116,8	120,2	100,6	106,3	111,3	107,5
Oziq-ovqat tovarlari	100,3	102,6	115,4	121,5	100,6	105,8	111,2	105,1
meva-sabzavot mahsulotlari siz oziq-ovqat tovarlari	100,6	107,5	116,6	119,9	101,5	110,0	113,2	108,3
Nooziq-ovqat tovalari	100,3	108,8	118,1	118,5	100,6	106,9	111,5	110,5
Xizmatlar	100,4	108,9	110,9	111,2	100,8	106,7	110,8	109,2

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Yuqorida ta`kidlanganidek, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o`rtacha 0,3 %ga qimmatlashgani umumiy INI darajasining 0,1 f.d.ga o`shishiga olib keldi.

Meva va sabzavot mahsulotlarini hisobga olmaganda oziq-ovqat tovarlari narxlari yil boshidan 7,5 %ga qimmatlashdi. Joriy yilning iyul oyiga nisbatan esa, ushbu ko`rsatkich 0,6 %ni tashkil etdi.

Quyidagi jadvalda alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste`mol narxlari indeksi namoyish etilgan:


**Ayrim guruh va turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining
iste`mol narxlari indeksi, %**

	2018 yil avgust			2018y yanvar- avgust 2017y yanvar- avgustga	Ma`lumot uchun:			
	2018y iyulga	2017y dekabrga	2017y avgustga		2017 yil avgust			2017y yanvar- avgust 2016y yanvar- avgustga
					2017y iyulga	2016y dekabrga	2016y avgustga	
Oziq-ovqat mahsulotlari	100,3	102,6	115,4	121,5	100,6	105,8	111,2	105,1
non mahsulotlari	100,6	109,2	117,3	115,0	100,1	103,3	102,5	101,3
go`sht, parranda go`shti va baliq	101,1	115,5	124,3	132,9	104,9	120,8	124,6	111,6
sut mahsulotlari	100,6	106,7	115,3	117,4	100,5	107,3	111,8	106,7
tuxum	102,2	77,0	103,9	113,7	98,2	100,9	118,5	116,1
yog` va moylar	100,3	101,5	107,4	112,2	100,5	110,0	113,8	112,2
meva va sabzavotlar	98,2	79,5	104,0	126,5	95,4	86,2	105,8	88,9
mevalar	93,3	110,5	157,8	156,3	95,7	86,6	97,3	76,5
sabzavotlar	112,0	63,0	88,3	110,6	93,5	81,6	97,6	93,3
kartoshka	99,6	40,8	43,8	93,3	102,7	152,8	284,1	263,8
shakar, choy va qand. maxsulotlari	99,9	99,4	109,5	113,2	99,4	106,9	112,0	111,5
alkogolsiz ichimliklar	100,5	104,3	107,6	107,1	100,0	103,7	107,0	107,2
spirtli ichimliklar	100,2	112,5	120,4	120,3	100,4	109,2	111,1	110,4
umumiy ovqatlanish	100,0	106,7	114,1	114,8	100,7	103,7	106,8	105,5


Oy davomida oziq-ovqat mahsulotlaridan sabzavotlar, tuxum, guruch va go`sht mahsulotlari narxlari sezilarli darajada qimmatlashganligi qayd etilgan.

Umumiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari darajasining birmuncha pasaytiruvchi omillari sifatida mevalar, poliz mahsulotlari, kartoshka va shakar narxlarining arzonlashganligi qayd etish mumkin.

Oy davomida narx indekslari orasida eng yuqori darajada qimmatlashgan oziq-ovqat mahsulotlari beshlik reytingi




Oy davomida narx indekslari orasida eng past sur'atlarda arzonlashgan oziq-ovqat mahsulotlari beshlik reytingi



O'tgan yilning oxiriga nisbatan narxlarning oshishi borasida yetakchilik sabzida, narxlarning pasayishida esa bodring mahsulotida kuzatildi.

O`tgan yilning so`ngiga nisbatan narx indekslari orasida eng yuqori darajada qimmatlashgan oziq-ovqat mahsulotlari o`nlik reytingi

















O'tgan yilning so'ngiga nisbatan narx indekslari orasida eng past sur'atlarda arzonlashgan oziq-ovqat mahsulotlari o'nlik reytingi



Quyida jadvalda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishi foiz ko'rinishida namoyish etilgan:

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi o`zgarishi

Mahsulotlar nomi	2018 yil iyulga nisbatan	2017 yil dekabrga nisbatan
 Karam	▲ 3,8 %	▲ 17,0 %
 Pomidor	▲ 40,9 %	▼ 68,9 %
 Sabzi	▲ 16,1 %	▲ 47,2 %
 Guruch	▲ 2,1 %	▲ 43,7 %
 Piyoz	▲ 4,3 %	▼ 43,7 %
 Lavlagi	▲ 12,4 %	▲ 26,2 %
 Sariyog`	▲ 0,6 %	▲ 7,3 %
 Shakar	▼ 0,7 %	▼ 12,3 %
 Tuxum	▲ 2,2 %	▼ 23,0 %
 Tovuq boldiri, son qismlari	▲ 2,3 %	▼ 3,4 %
 Parranda go`shti (sonlardan tashqari)	▲ 3,4 %	▼ 9,6 %
 Mol go`shti (suyaksizdan tashqari)	▲ 1,3 %	▲ 20,9 %
 Mol go`shti (suyaksiz)	▲ 0,8 %	▲ 12,1 %
 Qo`y go`shti	▲ 1,4 %	▲ 20,5 %

Boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o`rtacha narxlari darajasida jiddiy o`zgarishlar kuzatilmadi.

Hududlar kesimida olib borilgan o`rtacha iste`mol narxlari kuzatuv natijalariga ko`ra, iste`molchilar uchun bir kilogramm mol go`shtining eng baland narxi Toshkent shahri hududida, qo`y go`shtining eng yuqorisi esa Sirdaryo viloyati hududida ro`yxatga olingan.

Go`sht mahsulotlarining eng arzon narxi Qoraqalpog`iston Respublikasida ro`yxatga olingan.

Bir kilogramm bug`doy unining eng yuqori va eng arzon o`rtacha narxlari orasidagi tafovut 1,5 barobar, kartoshkada 1,4 barobar, qo`y go`shtida 1,4 barobar, mol go`shtida 1,2 barobar, parranda go`shtida 1,2 barobar, tuxumda 1,2 barobar va shakarda 1,1 barobarni tashkil qildi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, tovarlarning o`rtacha narxlari turli omillar ta`siri natijasida, ya`ni, assortimentlardagi o`zgarishlar, mavsumiylik, har xil narx darajalaridagi ayrim tovarlar ulushlarining o`zgarib turishi va boshqa sabablar natijasida shakllanadi. Shu munosabat bilan, shakllangan o`rtacha narxlar to`g`risidagi ma`lumotlardan joriy holatda narx indikator ko`rsatkichi sifatida foydalanish bilan bir qatorda, istisno tariqasida narxlarning inflyatsion dinamikasini inflyatsion omillari minnimalashtirilgan narx indeksleri bilan aniqroq tavsiflanishini ta`kidlashimiz lozim.

Joriy yilning 28 avgust holatiga iste`mol bozorida olib borilayotgan narxlar monitoringi natijasida quyidagi ma`lumotlar shakllandi:

**O`zbekiston Respublikasi uyushgan savdo majmualari hamda dehqon bozorlaridagi ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o`rtacha narxlari to`g`risida ma`lumot
2018 yil 28 avgust holatiga**

(1kg, so`mda)

Mahsulot nomi	O`rtacha narx	Qoraqalpog`iston Respublikasi	viloyatlar											Toshkent shahar	
			Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg`ona		Xorazm
Mol go`shti	36842	33008	36462	35427	38000	35440	34955	35807	37719	34718	38969	38574	37189	39433	40087
Qo`y go`shti	37283	29663	37588	32692	38769	37718	32536	38679	38188	39140	41734	39236	38300	39375	38341
Parranda go`shti	16783	17844	16441	16599	16562	16848	15638	17171	16173	18213	17088	17500	15834	14667	18391
Tuxum (10 dona)	4846	5033	4902	4682	4885	4570	4463	4725	4673	4641	5017	5166	4888	4653	5548
Piyoz	978	1161	916	998	800	957	962	924	850	816	913	1129	1038	1068	1164
Karam	1164	1535	866	1134	1300	1309	908	968	888	1254	1302	1230	807	1410	1381
Pomidor	3059	2212	3367	3077	2892	3104	3080	2723	2773	3113	2909	2820	2959	2810	4981
Sabzi	1844	2411	1182	2237	1562	1890	1982	1351	1748	2175	1768	1526	1727	2288	1972
Bodring	2196	1957	2502	2133	2077	2166	2241	1902	1828	2455	1933	2026	1907	2450	3167
Kartoshka	1398	1543	1343	1467	1262	1393	1399	1181	1234	1288	1199	1542	1374	1672	1676
Guruch	7561	5145	7087	8254	7546	7273	7850	6548	7884	8554	7711	7360	8694	7442	8502
O`simlik moyi (1 litr)	10172	9450	9988	10217	9978	9386	10203	10297	10111	11379	10589	10684	9945	9579	10598
Bug`doy uni	2855	2252	2691	3037	2746	3332	2959	2844	2546	2754	3005	3260	2854	2408	3282
Shakar	5026	5096	5251	4919	5123	5155	5059	4673	5254	5027	4993	5049	5005	4971	4791

Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining 0,3 %ga qimmatlashishi umumiy INIning 0,1 f.d.da oshishiga olib keldi

Joriy yilning avgust oyida ushbu guruhning narxlari darajasi avtomobil, kiyim-kechak, oyoq kiyim, kantselyariya tovarlari, qurilish materiallari narxlarining qimmatlashishi va avtomobillar uchun yoqilg`i (propan) o`rtacha narxlarining pasayishi ta`siri ostida shakllandi.

Asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlar guruhi narxlari o`zgarishi quyidagi ko`rinishda aks etgan:

2018 yilning avgust oyida asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste`mol narxlari indeksi, %

	2018 yil avgust			2018y yanvar-avgust 2017y yanvar-avgustga	Ma`lumot uchun			
	2018y iyulga	2017y dekabrغا	2017y avgustga		2017 yil avgust			2017y yanvar-avgust 2016y yanvar-avgustga
					2017y iyulga	2016y dekabrغا	2016y avgustga	
Nooziq-ovqat mahsulotlar	100,3	108,8	118,1	118,5	100,6	106,9	111,5	110,5
Kiyim-kechak	100,2	106,2	117,6	118,9	100,5	106,3	111,4	111,1
Oyoq kiyim	100,3	105,8	113,5	115,7	100,6	107,2	111,7	110,9
Gazlama va eshilgan iplar	100,3	106,9	112,6	114,8	100,5	110,9	113,9	112,1
Maishiy to`qimachilik mahsulotlari	100,4	106,7	115,3	116,7	100,7	106,4	109,6	109,3
Madaniy mollar	100,1	99,7	105,9	110,1	100,5	106,9	109,8	109,5
Qurilish mollari	100,3	117,3	126,5	126,7	100,6	107,1	107,1	105,9
Dori-darmonlar	100,0	102,7	112,0	113,9	100,0	102,9	106,4	106,9
Shaxsiy gigiena mahsulotlari	100,1	105,1	114,3	119,4	100,8	110,6	114,2	112,5
Tamaki mahsulotlari	100,0	115,2	124,0	127,6	100,0	110,6	116,6	111,8
Avtomobillar uchun yoqilg`i	99,2	116,5	140,2	131,2	100,0	100,0	118,1	118,1

“GM Uzbekistan” AJ korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarning chakana sotish narxlarini o`rtacha 7,7 %ga oshirilishi respublikaning umumiy inflyatsiya darajasiga 0,05 % miqdoridagi ta`sir ko`rsatdi.

Joriy yilning 8 oyi mobaynida ushbu gurux tovarlari umumiy narxlari o`shishiga ta`sir darajasi borasidagi yetakchilik qurilish materiallari, avtomobillar uchun yoqilg`i, yoqilg`i (ko`mir) va kiyim-kechaklar xissasiga to`g`ri keladi. 2018 yilning yanvar-avgust oylaridagi ushbu guruh tovarlari narxlarining o`shishi - inflyatsiyaga 2,2 f.d.da ta`sir etgan (35,5 %).

Joriy yilning III choragi davomida inflyatsiya darajasini jilovlash bo`yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, respublikada ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va korxonalarini modernizatsiya qilish hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo`yicha olib borilayotgan ishlar natijasida g`isht mahsulotlarining chakana narxi o`rtacha 0,1 %ga arzonlashdi. Sement narxlari esa aksincha, avgust oyida ham avvalgi oylardagi kabi o`shishda davom etmoqda (oy davomida o`rtacha 0,8 %).

Joriy yilning iyun oyidan boshlab, statistika organlari tomonidan asosiy turdagi qurilish materiallari narxlarini monitoring qilish maqsadida, tanlanma savdo nuqtalarida alohida turdagi (turi, navi) qurilish materiallari narxlari to`g`risida ma`lumotlar shakllantirilmoqda.

2018 yil 28 avgust holatidagi kuzatuv natijalari quyidagi jadval ko`rinishida havola etilgan:

2018 yilning 28 avgust holatiga O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy turdagi qurilish materiallari o`rtacha narxi to`g`risida ma`lumot *

(so`mda)

Mahsulot turlari	O`zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog`iston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent v.	Farg`ona	Xorazm	Toshkent sh.
Pishgan g`isht (1000 dona)	698086	691923	582375	616538	798314	642917	782778	522500	783906	669286	739000	751897	565526	720000	906250
Gulqog`oz (Oboy 10 m, eni 1 m)	102932	138636	93378	137600	42444	69500	50000	110000	145750	67893	51429	160364	104333	113000	156717
Yog`och materiali (1 m.kub)	1730611	1733214	1459063	1739321	1213846	1688436	1730625	1925833	1748750	1932143	1778125	1452636	1662500	1584061	2580000
Kraska (emal 1 litr)	21388	18417	24844	18813	22938	23031	20361	17384	18814	25218	25115	22091	18816	21640	21956
Shifer (1 dona)	36164	36091	34341	37233	37846	36948	35944	33292	36438	38714	36500	37524	33611	34063	37750
Oynalar (1 m. kv)	40956	48875	34453	39132	36979	34000	40857	44583	44813	42536	33389	49430	38211	44000	42125
Alyumin va plastik profil (1 m.kv)	411793	418867	399375	358231	407692	380000	382500	438750	428750	399289	347500	493330	319737	377292	613788
Sement (1 ton.)	732988	766438	726063	709685	728462	699122	740000	727951	707500	736790	753000	731932	723997	755417	755482
Shpatlyovka (1 kg)	970	865	916	913	877	1045	811	859	1022	993	1072	1158	1171	801	1076
Linoleum (1 m.kv)	40123	27991	29406	49893	49719	38000	44500	43750	40234	35821	38224	45582	51389	27500	39718
Keramik plitka (1 m.kv)	40203	34375	36933	41600	43364	35500	39813	44073	41969	34750	36575	40640	49763	35614	47877
Qum shag`al (1 m.kub)	74104	62101	57436	59385	125807	96267	23611	61104	80096	62500	37167	77589	86368	104575	103450

**O`rtacha narxlar turli xil omillar, jumladan, assortiment va boshqa tarkibiy o`zgarishlar natijasida shakllantiriladi*

	2018 yil avgust				2018y yanvar- avgust 2017y yanvar- avgustga	Ma'lumot uchun:			2017y yanvar- avgust 2016y yanvar- avgustga
	2017 yil avgust			2017y iyulga		2016y dekabrga	2016y avgustga		
	2018y iyulga	2017y dekabrga	2017y avgustga						
XUJMSH xarajatlari to'lovi	100,0	126,7	128,5	118,6	100,0	103,8	104,4	106,5	
Sovuq suv va kanalizatsiya	100,0	124,2	124,5	124,4	102,0	110,0	118,9	114,1	
Issiq suv ta'minoti	100,0	112,5	112,7	110,1	100,3	104,6	111,2	111,9	
elektroener-giya to'lovi	100,0	111,9	111,9	113,0	100,0	107,0	112,3	110,1	
Tabiiy gaz uchun to'lov	100,0	110,0	110,0	111,8	100,0	107,0	116,6	114,0	
Suyultirilgan gaz uchun to'lov	136,3	163,7	163,7	118,0	100,0	100,0	102,9	102,9	
Issiqlik ta'minoti uchun to'lov	100,0	113,7	113,9	110,8	100,3	104,8	112,2	112,1	
Maishiy chiqindi uchun to'lov	100,0	110,6	119,1	116,5	100,0	108,0	115,5	116,6	
Yo'lovchi transporti xizmatlari	99,8	108,2	108,5	109,5	101,9	106,6	108,2	106,5	
jumladan:									
Avtomobil transporti	100,0	109,3	109,3	105,3	100,2	101,6	103,9	104,9	
Temir yo'l transporti	102,3	115,7	118,7	140,2	113,1	114,7	98,9	86,4	
Havo transporti	96,9	98,9	99,8	126,6	107,2	146,9	153,2	133,3	
Aloqa xizmatlari	100,1	111,1	112,4	118,0	102,8	122,4	130,1	122,2	
Madaniyat muassasalari xizmatlari	100,1	101,2	101,8	110,2	100,0	114,7	115,9	107,9	
MTM xizmatlari	98,5	106,4	106,4	109,3	100,0	108,3	108,3	108,3	
Ta'lim xizmatlari	100,7	103,4	105,5	104,2	100,0	100,1	111,2	111,4	
Sport xizmatlari	105,0	112,8	116,7	109,4	100,0	102,3	103,8	104,6	
Dam olish xizmatlari	100,4	118,0	118,3	116,3	100,0	110,5	110,9	111,0	

	2018 yil avgust				Ma'lumot uchun:			
				2018y yanvar- avgust 2017y yanvar- avgustga	2017 yil avgust			2017y yanvar- avgust 2016y yanvar- avgustga
	2018y iyulga	2017y dekabrga	2017y avgustga		2017y iyulga	2016y dekabrga	2016y avgustga	
Tibbiy xizmatlar	100,2	104,0	106,0	105,4	100,2	101,5	103,0	103,7
Sug`urta xizmatlari	100,0	100,0	97,4	105,7	102,5	119,9	129,2	122,0

2018 yilning yanvar-avgust oylaridagi uy-joy kommunal xizmatlari, yo'lovchi tashish transporti hamda maishiy xizmatlar tarifi narxlarining qimmatlashishi xizmatlar sohasidagi umumiy narxlar indeksining o'sishida asosiy ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Joriy yilning o'tgan 8 oyi davomidagi narxlarning qimmatlashishi umumiy INI darajasiga 1,4 f.d.da ta'sir etgan (ulush 22,6 %).

Narxlar statistikasi boshqarmasi boshlig'i

M.Umarov

230-80-36